



“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat universiteti
rektori _____ O.X. Xamidov

2023-yil «29» avgust

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2023/2024 O‘QUV YILI 1 - YIG‘ILISH QARORLARI

2023-yil «29» avgust
Soat 08:30

- Raislik qiluvchi:** – O.X. Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi
- Qatnashdilar:** – Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

1. Ma’sul: O.X. Xamidov-rektor, kengash raisi

1. Kengash a‘zolari va universitet jamoasini 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yilligi hamda yangi o‘quv yili bilan tabriklash
2. Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilar, ta’lim – tarbiya jarayonida yutuqlarga erishgan turli tanlov g‘oliblarini taqdirlash

II Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishi bo‘yicha:

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 32 yilligini «Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘ni o‘tkazish to‘g‘risida

Eshitildi: A.A. Amonov (Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha Birinchi prorektor) kengash a‘zolariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 32 yilligini «Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘ni o‘tkazish to‘g‘risida" axborot berdi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yilligini «**Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun**» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. «Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun» shiori ostida «**Mustaqillik darslari**» barcha fakultetlarda yuqori saviyada o‘tkazilsin hamda fakultetlarga birlashtirilgan prorektorlar

tomonidan nazoratga olinsin.

3. “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun” shiori ostida “**Mustaqillik darslari**” ning o‘tkazilishi bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilsin (mas‘ul: matbuot kotibi, dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, tyutorlari).

4. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan “**Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!**” shiori ostida fakultetlar kesimida tinchlik va osoyishtalik, erkin va farovon xayotga shukrona keltirish va qadriga yetishlik bo‘yicha pedagog-xodimlarning markaziy hamda mahalliy **OAV**larida 2023-yilning 25-avgustidan 25 sentabriga qadar chiqishlarini tashkil etish bo‘yicha media rejasi asosida pedagog-xodimlarning **OAV**larida chiqishlari tashkil etilsin (mas‘ul: A.Amonov, matbuot kotibi, dekanlar).

Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

III. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:

ESHITILDI: R.G‘. Jumayev (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a‘zolariga “2023/2024o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risida” to‘g‘risida ma‘lumot berdi.(ma‘lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. 2023/2024o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023/2024 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. 2023/2024 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalarning natijalari yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig‘ilishlarida muhokama qilinsin va ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas‘ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).

4. 2023/2024 o‘quv yilida ilovada keltirilgan kafedra professor-o‘qituvchilarga o‘quv soatlari (ma‘ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari)ni quyidagi jadval asosida taqsimlashga ruxsat berilsin

5. Universitet professor-o‘qituvchilarining 2023-yilda reja asosida malaka oshirish kurslariga qatnashishlari ta‘minlansin. (mas‘ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

6. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

IV.Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo‘nalishlari bo‘yicha:

ESHITILDI: T.H.Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor) kengash a‘zolariga “Buxoro davlat universitetida 2023-yil yil avgust holatida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan tadbirlar to‘g‘risida” axborot berdi. (ma‘lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulovning universitetda 2023-yil avgust holatida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kafedralarda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar yangi 2023-2024 o'quv yilidan boshlab kamida 1 donadan Scopus, Web of Science kabi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop yetishi uqtirib o'tilsin. Mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

3. OAK tasarrufidagi (xalqaro va respublika) miqyosidagi ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar chop yetishiga e'tibor qaratilsin. Mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

4. Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasidagi (fundamental, amaliy, innovatsiya, startap) loyihalar tanlovlarida professor o'qituvchilarning faol ishtirok yetishiga alohida e'tibor qaratilsin. Mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

5. Xo'jalik shartnomalari asosida korxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va ilmiy tadqiqot ishlarini ishlab chiqarishga tadbirini amalga oshirish yo'lga qo'yilsin. Mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

6. Doktorant (DSc) hamda tayanch doktorant (PhD) larning dissertatsiya himoyalari o'z vaqtida hamda muddatidan oldin himoya qilishlarida amaliy yordam ko'rsatilsin. Mas'ul: ilmiy rahbar va kafedra mudirlari.

7. Kafedra professor-o'qituvchilarining patent, mualliflik guvohnomalarini olishlari bo'yicha choralar ko'rilsin. Mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

8. Ushbu qaror ijrosining nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

V. Xalqaro hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha:

ESHITILDI: M.H.Qilichov (Xalqaro hamkorlik departamenti boshlig'i) kengash a'zolariga Universitetda xalqaro aloqalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, rivojlantirish bo'yicha belgilanadigan vazifalar holati to'g'risida ma'lumot berdi.(ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik departamenti boshlig'i M.H.Qilichovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-2024 o'quv yilida xorijlik professor-o'qituvchilarni jalb qilmagan kafedralar top-1000 talikda turgan OTMLardan professor -o'qituvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishi Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor va kafedralar zimmasiga yuklansin.

VI. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha:

ESHITILDI: Z.Nurov (TSNQD boshlig'i) kengash a'zolariga Universitet professor-o'qituvchilarining 2022-2023 o'quv yilidagi faoliyat samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida axborot berdi.(ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. TSNQD boshlig'i Z.S.Nurovning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Faoliyatning samaradorlik (KPI) ko'rsatkichlari qoniqarsiz deb e'tirof etilgan pedagog-xodimlarga nisbatan kafedrada mavjud holat yuzasidan belgilangan tartibda jazo choralari ko'rilsin.

3. Ularning faoliyat natijalarini yaxshilashning samarali choralari kafedra va fakultetlar xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilsin (Mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).

4. Ko'rsatkichlari 80 ball va undan yuqori bo'lgan 10 nafar professor-o'qituvchilarni belgilangan tartibda moddiy rag'batlantirish amalga oshirilsin.

5. Professor-o'qituvchilarning faoliyat natijalarini UNIWORK platformasiga talab etilgan asoslovchi hujjatlari bilan muntazam ravishda yuklab boorish ta'minlansin.

VII. Moliya-iqtisod ishlari yo'nalishi bo'yicha:

Eshitildi: O'U. Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetida 2023/2024 o'quv yilida ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olib to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini va talabalarning to'lov-kontrakt mablag'lari to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish to'g'risida axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **O'U.Rashidov**ning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universitetining 2023-2024 o'quv yili uchun to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatining 1,4 baravari miqdorida, iqtisodiyot tarmoqlarining kamida 5 yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga o'qishga qabul qilishda tegishli yo'nalishlar bo'yicha Buxoro davlat universitetida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatining 2 baravari miqdorida, shuningdek Qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatining 2,5 baravari (xorijiy hamkor ta'lim muassasalari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq to'lanadigan mablag'lardan tashqari) miqdorida belgilansin.

3. Talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlari:

- 25% - 15 sentyabrgacha (1-kurslar);
- 25% - 1 oktyabrgacha (qolganlar);
- 50% - 1 yanvargacha;
- 75% - 1 aprelgacha;
- 100% - 1 iyulgacha va talabaniing asosli sabablari ko'rsatilgan holda yozma murojaatnomasiga ko'ra universitet kengashining qarori asosida bir semestr uchun uzaytirishni belgilansin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **O'U.Rashidov** zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI: B.B.Adizov (Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish departamenti boshlig'i) kengash a'zolariga 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Buxoro davlat universitetining yangi tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvaliga kiritilgan o'zgartirishlar shuningdek "Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va ish yuritish" departamenti negizida "Rektor ijro apparati"ni tashkil etish va shtatlar birligini o'zgartirish to'g'risida axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish departamenti boshlig'i **B.B.Adizov**ning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Buxoro davlat universitetining yangi tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvaliga kiritilgan o'zgartirishlar shuningdek "Murojaatlar bilan ishlash,

nazorat va ish yuritish” departamenti negizida “Rektor ijro apparati”ni tashkil etish va shtatlar birligini o’zgartirish maqullansin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Moliya-iqtisod ishlari bo’yicha prorektor **O’U.Rashidov** zimmasiga yuklatilsin.

2.1. Masala. O.X. Xamidov - Universitet kengashining 2023/2024 o’quv yili uchun ish rejasini, Universitet kengashi a’zolari va fakultet kengashlari a’zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to’g’risida.

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2011-yil 3-dekabr 487-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasining Ilmiy kengashi to’g’risida namunaviy Nizom”ning 2- va 3-bandlari hamda Universitet kengashining nizomiga asosan, har xil sabablarga ko’ra universitet kengashi tarkibidan chiqarilgan va kiritilgan kengash a’zolarining yangi tarkibi tashkil etilganligini ma’lum qildi. 2023/2024 o’quv yilida kengash tarkibiga prorektorlar, fakultet dekanlari mutaxassis chiqaruvchi kafedra mudirlari, universitet tarkibidagi muassasalar rahbarlari va bo’lim boshliqlaridan iborat 80 nafar kengash a’zolaridan tarkib topganligi ta’kidlab o’tdi.

Buxoro davlat universiteti kengashining a’zolari tarkibi

№	Kengash a’zolarining F.I.O	Lavozimi va ilmiy darajasi
.	Xamidov Obidjon Xafizovich	BuxDU kengashi raisi, BuxDU rektori, i.f.d., professor
.	Jumayev Rustam G’aniyevich	Kengash raisi o’rinbosari, O’quv ishlari bo’yicha prorektor, s.f.f.d. (PhD), dotsent
.	Amonov Azizbek Amonjonovich	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha 1- prorektor, s.f.f.d. (PhD)
.	Rasulov To’lqin Husenovich	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor f-m.f.d., professor
.	Jo’rayev Abror Turobovich	Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor, i.f.n., dotsent
.	Rashidov O’lmasjon Umarovich	Moliya-iqtisod ishlari bo’yicha prorektor
.	Rabbimqulov G’ovsiddin	Talabalar orasida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga mas’ul bo’lgan rektor maslahatchisi
.	Tursunov Murod Amonovich	O’quv-uslubiy departament boshlig’i, k.f.f.d. (PhD), professor
.	Muqimov Komil Muqimovich	O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, professor
0.	Qahhorov Siddiq Qahhorovich	"Nuroniyy" jamg’armasining BuxDU faxriylar jamoatchilik kengashi, p.f.d., professor
1.	Kobilov Baxtiyor Badriddinovich	BuxDU Xodimlar va talabalar kasaba uyushma qo’mitasi raisi
2.	Adizov Baxtiyor Raxmonovich	BuxDU huzuridagi pedagogik kadrlar MO va QT mintaqaviy markazi direktori, p.f.d., professor
13.	Eshankulov Xamza Ilxomovich	Axborot texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d. (PhD)
14.	To’xsanov Qahramon raximboyevich	Filologiya fakulteti dekani, f.f.d., professor

15.	Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich	Fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d., professor
16.	Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dotsent
17.	Olimov Shirinboy Sharopovich	<i>Pedagogik ta'lim fakulteti dekani v.v.b., f.f.d., professor</i>
18.	Ma'murov Bahodir Baxshullaevich	Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, p.f.d., professor
19.	Artikova Hafiza To'ymurodovna	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani, b.f.d., professor
20.	Azimov Sanjar Samadovich	San'atshunoslik fakulteti dekani, p.f.f.d. dotsent
21.	Niyozov Erkin Dilmurodovich	Tabiiy fanlar fakulteti dekani, t.f.n., dotsent
22.	Boltayev Abduraim Amonovich	Tarix va yuridik fakulteti dekani, s.f.n., dotsent
23.	Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li	Xorijiy tillar fakulteti dekani, f.f.f.d., dotsent
24.	Raximov Olim Hamitovich	Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d (PhD)
25.	Umarov Otabek Rafoilovich	Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrası mudiri v.v.b., b.f.f.d. (PhD)
26.	Yuldoshov Laziz Tolibovich	Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrası mudiri v.v.b., b.f.f.d (PhD)
27.	Rashidov Negmurod Elmurodovich	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrası mudiri, b.f.d., professor
28.	Toshov Xayot Muxammadovich	Zoologiya va umumiy biologiya kafedrası mudiri v.v.b., b.f.f.d (PhD)
29.	Jalolov Ozodjon Isomiddinovich	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası mudiri, f.-m.f.n.
30.	Shafiyev Tursun Rustamovich	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)
31.	Eshonqulov Husniddin Primovich	O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
32.	Rajabov Dilshod Zaripovich	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası mudiri f.f.d., professor
33.	Nosirov Otabek Temirovich	Rus tilshunosligi kafedrası mudiri v.v.b.
34.	Nigmatova Lolaxon Xamidovna	Rus adabiyotshunosligi kafedrası mudiri v.v.b., f.f.d., dotsent
35.	Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich	Fizika kafedrası mudiri, f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent
36.	Mirzayev Mirfayz Salimovich	Geliofizika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrası mudiri v.v.b., f.-m.f.n, dotsent
37.	Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich	Matematik analiz kafedrası mudiri, f-m.f.f.d. (PhD)
38.	Durdiyev Umid Durdimurodovich	Differensial tenglamalar kafedrası mudiri, f-m.f.f.d. (PhD), dotsent
39.	Murtazoyev Azizbek Nusratovich	Elektronika va texnologiya kafedrası mudiri, , t.f.f.d. dotsent

40.	Abdullayev Asliddin Junaydullayevich	Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD) professor
41.	Sherov Anvar Umarovich	Agrobiznes va logistika kafedrası mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)
42.	Sunnatov Yusuf Usmonovich	Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)
43.	Toxirov Javlon Raximovich	Marketing va menejment kafedrası mudiri v.b., dotsent
44.	Ibragimov Nutfillo Salimovich	Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası mudiri, i.f.d. (DSc), dotsent
45.	Qo'ldoshev Rustam Avezmurodovich	Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.f.d. dotsent
46.	Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent
47.	Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich	Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, p.f.d., professor
48.	Olimov Shirinboy Sharopovich	Pedagogika kafedrası mudiri, p.f.d., professor
49.	Shukurov Rahim Salimovich	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), professor
50.	Sattorov Anvar Ergashovich	Sport faoliyati kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
51.	Xolov Yoqub Davronovich	Ekologiya va geografiya kafedrası mudiri b.f.f.d. (PhD), dotsent
52.	Nazarov Sayfullo Ibodullayevich	Umumiy va noorganik kimyo kafedrası mudiri, t.f.n., dotsent
53.	Abduraxmonov Sayfiddin Fayzullaevich	Organik va fizkolloid kimyo kafedrası mudiri v.v.b., k.f.f.d. (PhD)
54.	Temirov Farrux Umidovich	Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD).dotsent
55.	Haitov Jahongir Shod monovich	Jahon tarixi kafedrası mudiri v.v.b, t.f.f.d. (PhD) dotsent
56.	Muzaffarov Firuz Davronovich	Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD) dotsent
57.	Namozov Bobir Baxriyevich	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
58.	Nazarov Akmal Mardonovich	Psixologiya va sotsiologiya kafedrası mudiri v.b., p.f.f.d., (PhD) professor
59.	Mamatov Dilshod Kodirovich	Tasviriy va amaliy san'at kafedrası mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent
60.	Rajabov To'xtasin Ibodovich	Musiqqa ijrochiligi va kafedrası mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent
61.	Rasulov Zubaydullo Izomovich	Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent
62.	Xodjayeva Dilafro'z Izatilloyevna	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası mudiri v.b., f.f.f.d, dotsent
63.	Bobokalonov Odilshoh Ostonovich	Fransuz tillari kafedrası mudiri v.b.

64.	Ro'ziyev Yarash Bozorovich	Nemis tillari kafedrası mudiri v.b. f.f.n., dotsent
65.	Kosimova Nafisa Farxadovna	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası mudiri, PhD, dotsent
66.	Fayzullayev Otabek Muhammedovich	Fakultetlararo chet tillari kafedrası mudiri v.b., f.f.f.d. (PhD), dotsent
67.	Nurov Ziyodulla Saymurodovich	Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i, i.f.f.d. (PhD), dotsent
68.	Turayev Akmal Atayevich	Magistratura bo'limi boshlig'i, f-m.f.f.d. (PhD), dotsent
69.	Hamidov Saidjon Komiljonovich	Marketing va karyera bo'limi boshlig'i
70.	Adizov Baxtiyor Ismatovich	Raqamli iqtisodiyot va inson resurs larini boshqarish markazi rahbari
71.	Qilichev Akram Abdusamadovich	Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va ish yuritish departamenti boshlig'i
72.	Karimov Rustam Abduraslovich	Yoshlar ma'naviy yuksaltirishiga ko'maklashish departamenti boshlig'i, f.f.f.d. (PhD)
73.	Karimov Feruz Raimovich	Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi
74.	Adizova Obodon Istamovna	Xotin-qizlar kengashi raisi, f.f.f.d. (PhD), professor
75.	Sharapov Shuxrat Shakirovich	Yuridik bo'lim boshlig'i
76.	Fayziyeva Umida Asadovna	Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i, dotsent
77.	Quliyev Yorqin Karimovich	Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi
78.	Husenov Murod Zoxirovich	Raqamli ta'lim texnologiyalari departamenti
79.	Shodmonov Istam Uktamovich	Sirtqi bo'lim boshlig'i
80.	Dilova Nargiza Gaybullayevna	BuxDU kengashi kotibi, professor, p.f.f.d. (PhD),

Yangi 2023-2024 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan BuxDU kengashi ish rejasi loyihasi barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari va fakultetlar dekanlari taklif mulohazalari asosidagi matn rektor tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli taklif va tuzatishlardan keyin tayyorlanganligi hamda ish rejaning to'liq matni universitet saytiga joylashtirilganligi ta'kidlandi. Jumladan:

No	Muhokama qilinadigan masalalar
1	Vazirlik Hay'ati qarorlari va buyruqlari hamda boshqa ko'rsatmalari
2	O'quv, o'quv-usuliy ishlarga oid
3	Ilmiy-tadqiqot ishlariga oid
4	Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlariga oid
5	Moliya-iqtisod ishlariga oid
6	Bo'sh lavozimlarga tanlovlarni tashkil etishga oid
7	Tavsiyalar
7.1.	Professor hamda dotsent ilmiy unvonga tavsiya
7.2.	O'quv- usuliy qo'llanmalarni Vazirlik muvofiqlashtiruvchi kengashi muhokamasiga tavsiya etish

8	Fuqarolarning yozma va ogʻzaki murojaatlariga oid
9	Ish rejalarni tasdiqlash masalalariga oid
10	Boshqa masalalar

Izoh: BuxDU kengashi ish rejasiga kiritilmagan, lekin dolzarb boʻlgan masalalar rejadani tashqari muhokamaga qoʻyilishi mumkin.

Kengash raisi: O.X. Xamidov ushbu masala boʻyicha soʻzga chiquvchilar bormi?

Ushbu **kengash aʼzolari tarkibi** va kengashning **yillik ish rejasini** tasdiqlab berishni ovozga qoʻydi

Rozilar – 78 nafar

Qarshilar –yoʻq

Betaraflar - yoʻq

Universitet kengashi kotibi N.G. Dilova tomonidan mavjud fakultetlarning kengash aʼzolari

tarkibini tasdiqlash ovozga qoʻyildi

Rozilar – 78 nafar

Qarshilar –yoʻq

Betaraflar - yoʻq

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori O.X. Xamidovning Universitet kengashining 2023/2024 oʻquv yili uchun ish rejasi va kengash aʼzolarining yangi tarkibini tasdiqlash toʻgʻrisidagi axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet kengashining 2023/2024 oʻquv yili uchun ish rejasi va kengash aʼzolarining yangi tarkibi hamda har bir fakultet kengashi aʼzolari tarkibi kengash aʼzolarining roziligi asosida tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror ijrosi oʻquv ishlari boʻyicha prorektor R.Gʻ.Jumayev hamda kengash kotibi N.G. Dilova zimmasiga yuklatilsin.

2.2. Universitet meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida.

ESHITILDI: O.X. Xamidov (kengash raisi, universitet rektori) kengash aʼzolariga universitet meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida maʼlumot berdi (maʼlumotnoma ilova qilinadi)

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

Universitetning "Sharaf kodeksi", "Odob-axloq qoidalari", universitet yoshlar siyosati va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar yillik Yoʻl xaritasi, Birinchi prorektor rejasi, Universitet oʻquv-metodik kengashining 2023/2024 oʻquv yili uchun yillik ish rejasi, taʼlim yoʻnalishlarining va mutaxassisliklarning oʻquv jarayoni jadvali, ishchi oʻquv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-oʻqituvchilarning shaxsiy ish rejalari hamda ilmiy darajasi boʻlmagan oʻqituvchilarga maʼruza soatlarini ajratish, taʼlim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimni nazorat qilish tartibi (AKADEMIK QOIDALAR)i, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektorining 2023/2024 oʻquv yili uchun yillik ish rejasi va Nizomi, TSNQBning 2023/2024 oʻquv yili uchun yillik ish rejasi, ilmiy - texnik kengashining 2023/2024 oʻquv yili uchun yillik ish rejasi va Nizomi belgilangan talablar asosida toʻliq rasmiylashtirilib, tasdiqlansin.

2.3. Buxoro davlat universitetiga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyani amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

ESHITILDI: Sh.Sharapov (Yuridik bo'lim boshlig'i) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetiga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyani amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son, "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorlariga muvofiq

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetiga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyani amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Boshqa lokal hujjatlarga mazkur Nizom talablariga muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.
2. Ushbu Nizom universitet kuzatuv kengashida tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiritilsin.
3. Devonxona mazkur buyruqni universitetning barcha tarkibiy bo'linmalariga yetkazilishini ta'minlasin.
4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

2.4. BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi oliy ta'lim muassasalari pedagog-kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining yangi(2023-yil, avgust) o'quv reja va o'quv dasturlari asosida tuzilgan ISHCHI o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida.

ESHITILDI: B.R. Adizov (Markaz direktori) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetiga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyani amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Markaz direktori B.R.Adizovning "BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi oliy ta'lim muassasalari pedagog-kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining yangi(2023 yil, avgust) o'quv reja va o'quv dasturlari asosida tuzilgan ISHCHI o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti inobatga olinsin.
2. Markazning 2023 yil sentabr oyidan boshlab tashkil etiladigan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari (matematika, fizika, falsafa, kimyo, biologiya, O'zbekiston tarixi, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat, ingliz tili, rus tili) yo'nalishlari ishchi o'quv reja va ishchi o'quv dasturlari tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor (R.G'.Jumayev) va mintaqaviy markaz direktori (B.R.Adizov) zimmasiga yuklatilsin.

Turli masalalar

3.1. 2023/2024-o'quv yiliga talabalarni TTJ joyi hamda ijaraga joylashishlariga ko'maklashish maqsadida universitet ishchi guruhini shakllantirish va 1 ta talabning talabalar turar joyida bir oy istiqomat qilish miqdorini 150 ming so'm etib belgilash to'g'risida

ESHITILDI: O'.Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2023/2024-o'quv yiliga talabalarni TTJ joyi hamda ijaraga joylashishlariga ko'maklashish maqsadida universitet ishchi guruhini shakllantirish va 1 ta talabning talabalar turar joyida bir oy istiqomat qilish miqdorini 150 ming so'm etib belgilash to'g'risida axborot berdi. (axborot ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z taklif va fikrlarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidovning kengash a'zolariga 2023/2024-o'quv yiliga talabalarni TTJ joyi hamda ijaraga joylashishlariga ko'maklashish maqsadida universitet ishchi guruhini shakllantirish va 1 ta talabning talabalar turar joyida bir oy istiqomat qilish miqdorini 150 ming so'm etib belgilash to'g'risidagi axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlikning 2019-yil 1-noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016-yil 9-noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to'g'risidagi Nizomga muvofiq:
- chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari (qalqon guruhi) va 1-2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar talabalar turar joyi **to'lovidan ozod** qilinsin;

- yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (*barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda*) borlar, "Temir daftar", "Kam ta'minlangan" ro'yxati (*sektor ma'lumotnomasi asosida*) ga olingan oila farzandi bo'lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo'lgan talabalarga **to'lovni 50% to'lash** imkoni berilsin (mas'ul: A.Amonov, O'.Rashidov, B.Adizov, U.Narziyev, U.Jo'rayev).

3. Talabalarni turar joylariga joylashtirishda mavjud o'rinlardan ehtiyoj va talab yuqori bo'lgan holatlarda quyidagi mezonlar ketma-ketligi asosida:

- Chin yetim talaba-o'quvchilar (kursidan qat'iy nazar);
- "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari;
- Nogironligi mavjud talaba-o'quvchilar (kursidan qat'iy nazar);
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, moddiy ahvoli og'ir talabalar (shuningdek, bitta oilada 2 yoki undan ortiq shaxs to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan bo'lsa);
- Xorijdan kelib tahsil olayotgan talabalar;
- qo'shni viloyatlar va viloyatdagi uzoq hududlardan kelib tahsil oluvchi talabalar;
- 1-2 kurs talabalari;
- Talaba-qizlar;
- Yoshlar ittifoqining faollari;
- Xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar;

- Talabalar turar joyida doimiy ravishda talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari va boshqa jihatlar bilan doimiy ravishda faollik ko'rsatib kelayotgan talabalar TTJga joylashtirilishi inobatga olinsin.

4. Mazkur qaror ijro nazorati Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

3.2. 2023/2024 o'quv yilidan boshlab yangi innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish uchun Buxoro davlat universitetining innovatsion jamg'armasiga mablag' yo'naltirish to'g'risida

ESHITILDI: O'.U.Rashidov (moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2023/2024 o'quv yilidan boshlab yangi innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish uchun Buxoro davlat universitetining innovatsion jamg'armasiga mablag' yo'naltirish to'g'risida axborot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori 2 bandi 5 xatboshisida "oliy ta'lim muassasalarining innovatsion jamg'armalarini shakllantirish innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlar, oliy ta'lim muassasalarining ish haqi, stipendiya to'lash, shuningdek, boshqa joriy xarajatlari qoplangandan keyin to'lov-kontrakt mablag'larining 5 foizdan kam bo'lmagan miqdorini yo'naltirish hisobiga amalga oshiriladi", - deb ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab yangi innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish uchun universitetning ish haqi, stipendiya to'lash, shuningdek, boshqa joriy xarajatlari qoplangandan keyin to'lov-kontrakt mablag'larining 5 foizini innovatsion jamg'armaga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Yuqoridagi masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirib, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab yangi innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish uchun universitetning ish haqi, stipendiya to'lash, shuningdek, boshqa joriy xarajatlari qoplangandan keyin to'lov-kontrakt mablag'larining 5 foizini innovatsion jamg'armaga yo'naltirishni qo'lab-quvvatlashdi. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinish, **kengash qaror qiladi:**

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U.Rashidovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023/2024 o'quv yilidan boshlab yangi innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish uchun universitetning ish haqi, stipendiya to'lash, shuningdek, boshqa joriy xarajatlari qoplangandan keyin to'lov-kontrakt mablag'larining 5 foizi innovatsion jamg'armaga yo'naltirilsin.

3. Mazkur qarorning ijro nazorati Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

3.3. Ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida

Filologiya fakulteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori Yuldasheva Dilorom Nigmatovnaga ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida

ESHITILDI: G. Zaripov (Ilmiy tadqiqot va innavatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi) – kengash a’zolariga filologiya fakulteti o’zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori Yuldasheva Dilorom Nigmatovna bir necha yillar davomida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish olib borayotganligi aytib o’tdi. “Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida)” mavzusidagi (10.00.01– O’zbek tili ixtisosligi bo’yicha) doktorlik dissertatsiyasi mavzusi OAKning dissertatsiya mavzularini ro’yxatdan o’tkazish elektron bazasiga kiritilganligi, D.N.Yuldashevaning doktorlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalari sifatida 19 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11ta maqola, 5 tasi xorijiy jurnallarda 6 tasi respublika jurnallarida, ilmiy-amaliy anjumanlarda jami 8 ta, shundan, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 4 ta, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 4 ta maqola chop ettirilgan. Kengash a’zolariga Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o’zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori D.N.Yuldashevaga 3 oy muddatda (04.09.2023-yildan – 04.12.2023-yilgacha) ijodiy ta’til berishni kengashdan so’radi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a’zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo’llab quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar bo’lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o’zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori D.N.Yuldashevaga 3 oy muddatda (04.09.2023-yildan – 04.12.2023-yilgacha) doktorlik (DSc) dissertatsiyasi ishini yozib tugatish maqsadida ijodiy ta’til berilsin.

2. D.N.Yuldashevaning ijodiy ta’til davri uchun yo’l xaritasi tayyorlansin va shu asosida ishlar amalga oshirilsin (mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor T.H. Rasulov va J.R.Jurayev).

3. D.N.Yuldasheva ijodiy ta’tilidan qaytgandan so’ng kengashga o’rnatilgan tartibda talabgorning hisoboti taqdim etilsin (mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor T.H. Rasulov va J.R.Jurayev).

4. Mazkur qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor T.H.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

3.4. BukhSU Scientific Biotechnology” UK tomonidan bajarilayotgan “Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish” loyihasining 1-bosqich hisobotini ko’rib chiqish hamda 2-bosqich uchun moliyalashtirish summasini tasdiqlash masalasi muhokamasi

ESHITILDI: E.B. Jalolov (“BukhSU Scientific Biotechnology” UK direktori) kengash a’zolariga “Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish” loyihasi bo’yicha 1-bosqichda amalga oshirilgan ishlar to’g’risida ma’lumot berdi.

Loyiha doirasida Buxoro viloyati iqlim sharoitidan kelib chiqib, ochiq suv havzalarida xaridorgir bo’lgan baliqlarni tig’izlashtirilgan (yarim intensiv) yetishtirish texnologiyasi joriy qilinmoqda. Baliqlar ularning og’irligi va suvda erigan kislorod miqdori hamda suv temperaturasiga muvofiq maxsus avtokarmushkalar yordamida 24 soat davomida 5 marotaba oziqlantirilmoqda. Baliqlar uchun 10 dan ortiq ingredientlarga boy vitaminlar, probiotiklar, pramiksalar, lizin, metionin, kraxmal, ozuqaviy achitqilardan iborat bo’lgan balanslashgan (me’yorlashtirilgan) baliq ozuqalaridan foydalanilmoqda. Oddiy sharoitda 1

ga maydonda maksimum 2 500 donagacha bo'lgan turli turdagi baliqlar 1 yil davomida boqilsa, taklif qilayotgan tig'iz (yarim intensiv) usulda baliq yetishtirishda 1 ga maydonda 6 000 donagacha baliq yetishtirilmogda. Loyihani amalga oshirish "Buxorobaliq" MChJ ga tegishli bo'lgan 1 ga baliq hovuzini ijaraga olindi, tegishli shrtnomalar imzolangan imzolangan hamda o'rnatilgan tartibda ijara shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan.

Loyiha yakunida yarim intensiv usulda baliqlarni kasalliklardan himoya qilgan holda, tashqi omillarga chidamligi oshirilgan baliq yetishtirish biotexnologiyasi hamda iqtisodiy samaradorligi yuqori chuchuk suv akvakulturasini joriy etiladi.

Loyihani amalga oshirish maqsadida 7 nafar tarkibdan iborat loyiha jamoasi shakllantirilganligi ta'kidlanadi. Loyihaning umumiy qiymati 565 437,3 ming so'mni tashkil etadi.

Bunda mos ravishda loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarish uchun 1-bosqich (2023-yil may, iyun va iyul oylari) uchun 467 398,0 ming so'm, 2-bosqich (2023-yil avgust, sentyabr va oktyabr oylari) uchun 91 728,9 ming so'm, 3-bosqich (2023-yil noyabr va dekabr oylari) uchun 6 309,5 ming so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Loyihaning 1-bosqichi yakunlandi. 1-bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Yarim intensiv baliqchilik uchun mos hudud tanlandi.
 2. Yarim intensiv baliqchilik haqida aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar to'plandi.
 3. Baliqchilik xo'jaligi bilan tuzilgan yuridik ijara shartnomasiga asosan ijara to'lovi to'lab berildi.
 4. Baliqchilik xo'jaligidan olingan havzani suv kelish hamda suv chiqish yo'llarini loyihalashtirildi.
 5. Hovuzlarni ta'mirlash, suvga to'ldirish, baliqlantirish, aeratorlar va avtokarmushkalarini joylashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan yo'l xaritasini tuzildi.
 6. Baliqlarni boqish uchun maxsus me'yoralashtirilgan sifatli ozuqani tashlab va uni olib kelish ishlarini tashkil etildi.
 7. Hovuzlar baliqlantirildi.
 8. Xarajatlar smetasida ko'rsatilgan asbob-uskunalar, inventar va texnikalar (avtokarmushkalar, aeratorlar, kuzatuv kameralari) xarid qilindi hamda belgilangan tartibda o'rnatildi.
 9. Baliqlar xalqaro standartlarga muvofiq mavsum davomida boqish tartibi shakllantirildi.
 10. Xalqaro standartlarga muvofiq suvning pH ko'rsatkichlari doimiy 7,2 – 7,8 oraligida bo'lishi ta'minlandi.
 11. Suvda erigan kislorod miqdori 5 gr/l ko'rsatkichdan ilmiy asoslangan holda 9-11 gr/l ko'rsatkichga ko'tarildi.
 12. Suv tarkibidagi kimyoviy moddalar (ammiyak, nitrit, nitrat, fosfat, karbonat angidrid) doimiy ravishda standartga muvofiq o'rganildi.
 13. Beriladigan maxsus baliq ozuqalari baliqlar tomonidan qanchalik darajada o'zlashtirilgani va o'zlashtirilgan ozuqaning qancha ulushi baliq mahsuldorligiga ta'siri o'rganildi.
 14. Baliqlarning uzunligi va aylanasi uning og'irligiga bo'lgan nisbati xalqaro standartlar bo'yicha o'rganib borildi.
 15. Baliqlarning semizlik koeffitsienti Klark va Fulton usullari yordamida nazorat qilindi.
 16. Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirishda baliqlarni kasalliklardan chuqur himoyalash usullari ishlab chiqildi.
- 1-bosqich uchun shartnomaga asosan ajratilgan 467 398,9 ming so'm mablag'ning xarajatlar smetasi bo'yicha 452 768,9 ming. so'm qismi xarajatlarga yo'naltirildi. Xarajatlar

smetasidan tashqari 2 181,96 ming. so‘m mablag‘ xarajatlarga yo‘naltirildi. **(1-bosqich bo‘yicha umumiy xarajatlar smetasi hisoboti ilova qilinadi)**

Loyiha rahbari so‘zining yakunida kengash raisi va a‘zolaridan vaziyat taqozosiga ko‘ra loyihaning 1-bosqichi uchun xarajatlar smetasi tarkibida o‘zgarishlar yuz berganligini, shu sababli turli sabablarga ko‘ra sarflanmagan mablag‘lar ortiqcha sarflangan xarajatlarga yo‘naltirilganligini inobatga olishni, smetada ko‘rsatilmagan rejadan tashqari amalga oshirilgan xarajatlarni ishlatilmay qolgan mablag‘lar hisobidan qoplashga ruxsat berishni hamda umumiy ishlatilmagan mablag‘ 12 448,14 ming so‘mni loyihaning 2 va 3-bosqichlarini amalga oshirishda elektr energiyasi xarajatlariga yo‘naltirishga ruxsat berishni so‘radi.

So‘zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo‘yicha universitet kengashi

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. “BukhSU Scientific Biotechnology” UK direktori E.B. Jalolovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Loyihaning ilk marotaba bajarilayotganligini inobatga olgan holda, loyihaning 1-bosqichi uchun xarajatlar smetasi tarkibidagi o‘zgarishlar va turli sabablarga ko‘ra sarflanmagan mablag‘lar ortiqcha sarflangan xarajatlarga yo‘naltirilganligi inobatga olinsin hamda smetada ko‘rsatilmagan rejadan tashqari amalga oshirilgan xarajatlarni ishlatilmay qolgan mablag‘lar hisobidan qoplashga ruxsat berilsin.

3. Loyihaning 1-bosqich yakunida umumiy ishlatilmagan 12 448,14 ming so‘m mablag‘ni loyihaning 2 va 3-bosqichlarini amalga oshirishda elektr energiyasi xarajatlariga yo‘naltirishga ruxsat berilsin.

4. Loyihaning 2-bosqichini amalga oshirish uchun 91 728,9 ming so‘m mablag‘ ajratilsin. Bunda 30 000,0 ming so‘m mablag‘ baliqlarning ozuqa zahirasi uchun bo‘nak tarzida ajratilganligini inobatga olib, jami 61 728,9 ming. so‘m mablag‘ “BukhSU Scientific Biotechnology” UK hisob raqamiga o‘tkazib berilsin.

5. Universitet va “BukhSU Scientific Biotechnology” UK o‘rtasida 2023-yilning 28-aprel kunida imzolangan 2-sonli shartnomaning 3-ilovasi “Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish” loyahasiga ajratilgan mablag‘larni qaytarish grafigi summasi asosiy vositalarga ajratilayotgan summa tarkibida o‘zgarish yuz berganligini (9 600,0 ming so‘m mablag‘ ishlatilmagan, umumiy hisobda 48 570,0 ming so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan) inobatga olib, 516 867,3 ming. so‘mga o‘zgartirilsin.

6. Ushbu qarorning ijro nazorati ilmiy-ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor T.H. Rasulovga yuklatilsin.

Kengash kotibi

N.G.Dilova